

2019 yil yanvar-oktabr oylarida Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **7051,8 mlrd.so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi **113,6 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning hajmi **4569,7 mlrd.so'mni** o'sish sur'ati **112,3 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **64,8 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **76,5 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 7051,8 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 113,6 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmi indeksi 114,5 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 96,8 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 104,3 % ga o'sishi hisoblanadi.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, %



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 48,0 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019 yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6751,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 95,7 % ni tashkil etdi.


**2019 yil yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

	2019 yil	2018 yil	2018 yilga nisbatan, %
O'simlik yog'i (tozalanmagan), ming tonna	10,8	10,3	104,9
Paxta linti, ming tonna	1,7	2,8	60,7
Aroq – ming litr 100 % spirt	358,4	956,3	37,5
Vino, ming litr	1022,0	1198,0	85,3
Un, ming tonna	95,7	93,8	102,0
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	9,2	8,2	112,2

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi.

Tarmoqlar nomi	Mahsulot hajmi, mlrd.so'm	Jamiga nisbatan ulushi, foizda
Ishlab chiqaradigan sanoat	6 751,6	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	1 371,4	20,3
Ichimliklar ishlab chiqarish	315,9	4,7
Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	0,0	0,0
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	2 326,4	34,5
Kiyim ishlab chiqarish	904,8	13,4
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	182,0	2,7
Yog`och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohlol va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	24,5	0,4
Qog`oz va qog`oz mahsulotlari ishlab chiqarish	54,9	0,8
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	2,4	0,0
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	8,5	0,1
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	98,0	1,5
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	239,2	3,5
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	97,7	1,4
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	313,4	4,6
Metallurgiya sanoati	52,1	0,8
Mashina va uskunalardna tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	216,8	3,2
kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	2,8	0,0
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	226,6	3,4
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	49,1	0,7
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	7,2	0,1
Boshqa transport uchkunolari ishlab chiqarish	0,7	0,0
Mebel ishlab chiqarish	109,7	1,6
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	139,4	2,1
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish	8,2	0,1

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ning ulushi -3,6 % ni (2018 yil yanvar-oktabr oylarida -3,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali-5,7 % (5,7%), o'rta-quyi texnologiyali-10,3 % (11,4%) va quyi texnologiyali-80,4 % (79,3%) ni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 195,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,8 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 56,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ni) tashkil etdi.



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 4569,7 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 112,3 % ga o'sgan, jami sanoatdagi ulushi esa 64,8 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-oktabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2018 yilning yanvar-oktabr oyida iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushi 30,0 % bo'lib, 2019 yilning yanvar-oktabr oyida 32,9 % ga yetgan.

Yanvar-oktabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, %da



2018 yilning yanvar-oktabr oyida iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushi 70,0 % bo'lib, 2019 yilning yanvar-oktabr oyida 67,1 % ni tashkil qildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan kamaygani kuzatildi.

**Hududlar bo'yicha 2019-yilning yanvar-oktabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

	Mrd.so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2018 yil yanvar- oktabrga nisbatan o'sish, % da
Viloyat jami	4569,7	100,0	112,3
Namangan shahar	2183,6	47,8	113,0
Mingbuloq	38,4	0,8	103,3
Kosonsoy	191,9	4,2	114,3
Namangan t	478,3	10,5	109,8
Norin	92,9	2,0	113,5
Pop	109,8	2,4	101,8
To'raqo'rg'on	382,1	8,4	113,2
Uychi	300,1	6,6	110,8
Uchqo'rg'on	401,1	8,8	109,4
Chortoq	88,9	1,9	111,9
Chust	233,7	5,1	124,2
Yangiqo'rg'on	68,9	1,5	105,4


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarilishi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2084,8 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Qo'shma korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 29,6% ni tashkil etdi.


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi,% da.


2018 yil yanvar-oktabr



2019 yil yanvar-oktabr




 Viloyatning boshqa korxonalari

 Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar

Qo'shma korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari ulushi 100,0 % ni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarini sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,% da.




Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

	2019 yil yanvar-oktabr, mlrd.so'm	2018 yil yanvar-oktabrga nisbatan, %
Viloyat jami	7051,8	113,6
Namangan shahar	2972,6	109,2
Mingbuloq	114,7	95,8
Kosonsoy	271,8	106,8
Namangan t	730,7	108,8
Norin	128,3	103,3
Pop	289,4	113,6
To'raqo'rg'on	611,8	128,7
Uychi	435,1	103,1
Uchqo'rg'on	1054	130,6
Chortoq	95,6	105,3
Chust	239,9	104,5
Yangiqo'rg'on	107,9	108,7

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahar (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 42,1 % ulushini), Uchqo'rg'on (14,9 %), Namangan (10,4 %), To'raqo'rg'on (8,7 %), Uychi tumani (6,2 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shu bilan birga eng kam ulush Chortoq (1,4 %), Yangiqo'rg'on (1,5 %), Mingbuloq (1,6 %), Norin (1,8 %) va Chust (3,4 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Hududlar bo'yicha sanoat va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish ulushi, % da.



■ Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi, % da ■ Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish ulushi, % da

Shuningdek, iste'mol mollari hajmining eng katta qismi Namangan shahar (jami iste'mol tovarlari hajmida 47,8 %), Namangan (10,5 %), Uchqo'rg'on (8,8 %) hamda To'raqo'rg'on (8,4 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida To'raqo'rg'on, Pop va Uchqo'rg'on tumanlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Uchqo'rg'on (6221,8 ming so'm), Namangan shahrida (4814,7 ming so'm), Namangan tumanida (4149,2 ming so'm), va To'ra qo'rg'on (2751,0 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2541,9 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.


Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 1647,2 ming so'm bo'lgani hol da Namangan shahrida 3536,8 ming so'mni, Namangan tumanida 2716,3 ming so'mni, Uchqo'rg'on tumanida 2367,5 ming so'mni, To'ra qo'rg'on tumanida 1718,0 ming so'mni tashkil etdi.

**2019 yil yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat
ishlab chiqarish va iste'mol tovarlari hajmlari.**


	Sanoat ishlab chiqarish (ming so'mda)	Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish (ming so'mda)
Viloyat jami	2541,9	1647,2
Namangan shahar	4814,7	3536,8
Mingbuloq	924,5	309,1
Kosonsoy	1322,2	933,4
Namangan t	4149,2	2716,3
Norin	794,8	575,3
Pop	1336,6	507,2
To'ra qo'rg'on	2751,0	1718,0
Uychi	2078,0	1433,3
Uchqo'rg'on	6221,8	2367,5
Chortoq	487,8	453,6
Chust	917,4	893,8
Yangiqo'rg'on	503,1	321,4

**2019-yil yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat
mahsulotlari ishlab chiqarish va iste'mol tovarlarining o'sishi,
2018-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan % da.**

Sanoat ishlab chiqarish



**Iste'mol tovarlari ishlab
chiqarish**




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish xajmi 5393,3 mlrd.so'mni va o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 76,5 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Kosonsoy (93,3 %), Uychi (91,5 %) va Namangan (88,8%) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Mingbuloq (33,5 %), Pop (50,3 %) va Chust (59,9 %) tumanlarida kuzatildi.


2019 yilning yanvar-oktabr oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.


Bugungi kunda viloyatda 5387 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 2316 tasi Namangan shahrida, 394 tasi Chust, 390 tasi Uychi, 382 tasi Namangan, 346 tasi Kosonsoy, 335 tasi To'raqo'rg'on, 243 tasi Uchqo'rg'on, 228 tasi Norin, 217 tasi Yangiqo'rg'on, 213 tasi Chortoq, 208 tasi Pop va 115 tasi Mingbuloq tumanida joylashgan.

**2019 yil 1noyabr holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni
(birlikda)**



2019 yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatda 1297 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 55,2 % Namangan shahri, Kosonsoy, Uchqo'rg'on va Uychi tumanlariga to'g'ri keladi.

**2019 yil 1 noyabr holatiga yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
(birlikda)**



Namangan viloyat statistika boshqarmasining

Sanoat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

E.Jalilov

Aloqa telefoni:

(71) 230-84-80